

## BOSHLANG'ICH TA'LIM GRAMMATIKA VA SO'Z YASALISHIGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI .

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti

“Boshlang'ich ta'lim amaliyoti va nazariyasi”

kafedrasi mudiri dots . F. Shodiyev

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti

2-kurs magistiri Tirkashova M. Q.

### Annotatsiya

Innovatsion texnologiyalar orqali o'quvchilarda ona tili faniga oid bilimlarni shakllantirish jihatlari tahlil qilingan. Tanlangan metodni qo'llash orqali o'quvchilarning tarixga, milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlari ortadi. O'quvchilar mavzuga ijodiy yondashadi, erkin o'z fikrlarini bildirishga harakat qiladilar. Bu bilan ularning mustaqil fikri teranlashadi, dunyo qarashi o'sadi, darsga qiziqishi ortadi, topqirligi, zukkoligi, tezkorligi, faolliklari oshib boradi.

**Kalit so'zlar:** grammatika va so'z yasalishi, ot so'z turkumi, metodlar.

### Абстрактный

Проанализированы аспекты формирования знаний о родном языке у студентов с помощью инновационных технологий. С помощью выбранного метода повышается интерес учащихся к истории и национальным ценностям. Ученики подходят к теме творчески, стараются свободно высказывать свое мнение. При этом углубляется их самостоятельное мышление, растет мировоззрение, возрастает интерес к занятию, повышается сообразительность, сообразительность, сообразительность, активность.

**Ключевые слова:** грамматика и словообразование, группа существительных, приемы.

### Abstract

Aspects of formation of knowledge of the native language among students through innovative technologies were analyzed. By using the selected method, students' interest in

history and national values increases. Pupils approach the topic creatively, try to express their opinions freely. With this, their independent thinking deepens, their worldview grows, their interest in the lesson increases, their ingenuity, intelligence, quickness, and activity increase.

**Key words:** grammar and word formation, noun group, methods.

Uzoq yillar mobaynida qayd etilgan pedagogik kategoriyalar jamiyat ijtimoiy talabi darajasidagi maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun yetarli bo'lib kelgan. Muayyan davrlarda bir guruh pedagoglar tomonidan barcha davrlarda amalga oshirilgan pedagog faoliyatining darajasi qoniqarsiz deya baholaganlar. Ular, xususan, pedagogik tushunchalarga berilgan ta'rif va tavsiflarning noaniqligi, ta'lim jarayonlarini tavsiflovchi ba'zi kategoriyalarning yetishmasligi, ta'lim maqsadi, mazmuni, shakli, uslubi va o'qitish vositalari o'rtasida o'zaro uzviylikning mavjud emasligi kabi holatlarni doimiy ravishda tanqid qilib kelganlar. Ular tomonidan "metodika" tushunchasi yuqori darajadagi subektivlikka ega ekanligi ta'kidlanadi. Haqiqatda esa ta'lim natijalari o'qituvchining pedagogik jarayonlardan muvaffaqiyatli "o'tganligi" bilan belgilanadi[17].

Pedagogik jarayonning mohiyati - o'qituvchi hamda o'quvchining birgalikdagi faoliyati mazmunida aks etadi, mazkur jarayonda pedagog o'quvchiga yuzaga kelgan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Pedagogik yordamning asosiy mohiyati pedagogik jarayonning tavsifi, uning ma'lum maqsadga yo'naltirilganligi, shuningdek, shaxsni shakllantirish va tarbiyalash borasida hal etiladigan vazifalar bilan ifodalanadi. Pedagog axborotlarni e'lon qilish, ko'rsatish, eslatish, tushuncha yoki maslahat berish, yo'naltirish, haqqoniylashtirish, kengashish, bartaraf yetish, hamdardlik qilish, ilhomlantirish, qiziqish va hurmatni izhor qilish, talabchanlikni qo'llab-quvvatlash kabi ko'rinishlarda yordam beradi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari - majmuaviy integral (butun, uzviy bog'liq) tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida bedgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ularda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma'lum tartibga solingan to'plami sifatida aks etadi[18].

Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), mazmuni tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta'lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta'lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?), shuningdek, o'qituvchilar malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo'l bilan) inobatga olinishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo'llanilishi o'quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi. Ta'lim texnologiyasini loyihalash jarayonida pedagogik vazifaning qo'yilishi va uni hal etishga alohida e'tibor berilishi zarur. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning bilim darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik bilim tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi.

Ta'lim va tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar ajdodlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim, tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo shu yerda. O'qituvchi o'quvchilarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim



berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak”[7].- deb ta’kidlaydi. Shaxs Kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim tarkibiy qismi, kadrlar tayyorlash, tizimining bosh subyeksi va obyeksi, ta’lim sohasidagi xizmatlarining istemolchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida belgilab berilgan. Bu esa respublikamizda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning yo‘lga qo‘yilishi uchun zarur asoslarni yaratib berdi.

Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo‘llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog‘liqdir.

Ta’lim nazariyasida o‘qitish (ta’lim) metodlari markaziy o‘rinni egallaydi.

“Metod” yunoncha so‘z bo‘lib “yo‘l” ma’nosini anglatadi. Ta’lim metodi Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usulidir.

Ta’lim metodlari o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish usullari hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy jihatdan yo‘nalashtirish yo‘llarini anglatadi.

O‘qitish metodlari ta’lim jarayonida o‘qituvchi va tahsil oluvchi faoliyatining qanday bo‘lishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda tahsil oluvchilar qanday ish-harakatlarni bajarishlari kerakligini belgilab beradi.

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo‘linadi. O‘quv-bilish faoliyatining tashkil etilishi, o‘quv axborotlarining uzatilishi, qabul qilinishi, anglab olinishi, yodda saqlanishi, o‘zlashtirilgan bilimlarning amaliyotda qo‘llanilishini ta’minlash, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishiga ko‘ra ta’lim metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- verbal (o‘quv axborotlarini so‘z orqali uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari yoki og‘zaki metodlar - hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqalar);
- o‘quv axborotini ko‘rgazmali uzatish va ko‘rish orqali qabul qilish metodlari (ko‘rgazmali metodlar - tasviriy, namoyish qilish va boshqalar);
- o‘quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar – mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar).

Insondagi bilimlarning hosil bo'lishida undagi 5 ta sezgi a'zolari vositasida qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotlar nisbati quyidagicha:

1-rasm

Ko'rish a'zosi orqali-80-85%

Eshitish a'zosi orqali-9-13%

Hid bilish a'zosi orqali-2,5-3,5%

Teri sezgisi orqali-1,5-3%

Ta'm bilish a'zosi orqali-1-2%

**Jami-100% gacha**

2-rasm

Turli sezgi organlari ishtirokida o'zlashtirilgan va qayta ishlangan axborotning oradan 2 hafta o'tgach, quyidagi miqdorlari eslab qolinadi:

O'qiganlar-10%

Eshitilganlar-20%

Ko'rilganlar-30%

Ko'rilganlar va eshitilganlar-50%

Gapirilganlar-80%

Gapirilganlar va amalda bajarilganlar-90%

3-rasm

Demak, dars jarayonida biz tanlagan metod(4-rasm) muhim ahamiyatga ega ekan.

**“Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash” metodi**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ushbu metodni qo'llash nihoyatda qulay. Metoddan darslarning so'ngida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo'llaniladi:**



- o‘qituvchi tomonidan sinf tahsil oluvchilarining soniga ko‘ra har bir tahsil oluvchi uchun qizil va yashil rangli kartochkalar hamda mavzuga oid savolnoma tayyorlanadi;
- savolnomadan “ha” yoki “yo‘q” tarzida javob berish mumkin bo‘lgan savollarning o‘rin olishiga ahamiyat qaratiladi;
- har bir tahsil oluvchiga qizil va yashil kartochkalar tarqatiladi;
- o‘quvchilarga qizil rangli kartochkalarning “tasdiq”, yashil rangli kartochkalarning “inkor” ma’nosini anglatishi o‘qtirib o‘tiladi;
- o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga “tasdiq” yoki “inkor” ma’nolarini anglatuvchi kartochkalarni ko‘rsatish asosida javob qaytaradilar.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfida “Ona tili ” fani bo‘yicha tashkil etilgan dars jarayonida “Ot- so‘z turkumi”, tanitishda **“qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash”** metodini qo‘llashda o‘quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin:

**Ot** — mustaqil so‘z turkumlaridan biri. U boshqa turkumlardan bir necha belgi — xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat: 1) ot yasash xususiyatiga ega: ishchi, suhbatdosh, paxtakor, bog‘bon, oshpaz, Mirzacho‘l; b) sonmiqdorni bildirish xususiyatiga ega: bola — bolalar, daftar—daftarlar; v) egalik ko‘rsatkichiga ega: otam, otang, otasi — otamiz, otangiz, otalari; g) kelishik shakllari bilan o‘zgaradi; maktab, maktabning, maktabni, maktabga, maktabda, maktabdan; d) gapda barcha gap bo‘laklari vazifasida keladi.

Aniq, predmetlarni yoki predmet sifatida tasavvur qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan otlar ma’nosiga ko‘ra, atoqli va turdosh otlarga bo‘li-nadi. Bir xildagi predmet yoki hodisaning birini ajratib ko‘rsatuvchi otlar atoqli otlar sanaladi: Rustam, Olimjon, Jomboy, Mars, Venera, Boychibor kabilar. Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi turdosh otlardir: gul, daraxt, qalam, daftar kabi.

1. Otlarning ma’nosiga ko‘ra turlarini ayting?
2. Qanday otlarni bosh harf bilan yozasiz?
3. Otlar qaysi qo‘shimchalar bilan qo‘llanadi?
4. Egalik qo‘shimchalari qanday ma’no bildiradi?
5. Egalik qo‘shimchalarini yoddan yozing?
6. Otlar gapda boshqa so‘zlar bilan nimalar yordamida bog‘lanadi?

“Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash” metodini qo‘llash orqali o‘quvchilarning savodxonlik , mavzuga bo‘lgan qiziqishlari ortadi. Dars noan’anaviy



tashkil etiladi, o'quvchilar ijodiy, erkin o'z fikrlarini bildirishga harakat qiladilar, bu bilan ularning mustaqil fikri, dunyo qarashi o'sadi, darsdagi qiziqishlari, topqirliklari, zukkoligi, tezkorligi, faolliklari oshib boradi. O'quvchilarning "Ot-so'z turkumi", ularning savodxonlik me'yorlari bilan tanishib, o'rnak ola boshlaydilar. Fikrlashidagi mavjud bo'lgan nuqsonlari ijobiy tomonga o'zgaradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim va ko'nikma shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko'ra, sinf o'quvchilarida metodni to'g'ri qo'llash orqali quyidagi bilim ko'rsatkichlarining elementlari shakllantirilib boriladi.

### **Tanlangan metod orqali o'quvchilarda shakllantiriladigan bilim mezonlari**

- Mavzuni tushunish va turli manbalardan kerakli ma'lumotlarni izlab topish hamda undan foydalana olish;
- darsda kitob bilan ishlay olish, o'rganilayotgan mavzuni, kerakli qoidani, gapirib bera olish, topshiriqlarini tartibi bilan bajarish.
- so'z turkumlarini o'rganish va bir-biridan farqlash;
- gaplardan so'z turkumini topish va yod olish;
- so'z turkumini jurnal va gazetalarni mustaqil o'qib-o'rganish orqali bilimni muntazam oshirib borish;
- so'z turkumini haqida maktabda, oilada, sinfda ma'lumot bera olish;
- Mavzuni o'rganish yuzasidan o'zining o'quvchilik burch va huquqlarini, vazifalarini bilish va ularga rioya qilish;
- davlat ramzlarini bilish, davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko'rsata olish;
- sinfda va oilada o'z o'rnini bilish, o'ziga yuklatilgan vazifalarni anglay olish;
- o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish;
- sinfdagi jihozlar va o'quv qurollarini asrab-avaylash.

Dunyo ta'lim tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yangi islohatlar davrida ta'lim tajribalariga tayanib ish tutmoq yaxshi natijalarga olib keladi. Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan ruhshunoslari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor





samarasi, deya qayd etadilar. Turli ta'lim ko'nikmalarini bolalar ongiga singdirish, milliy tarbiyani esa boshlang'ich ta'limda shakllantirish, yaponlarga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobilyatiga ega bo'lishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Shu bilan birgalikda bolalar milliy qahramonlarini ham yaxshi bilmog'i zarur[12].

Bunday interfaol darslarni tashkil etish o'quvchilardan darsda faol ishtirok etishni, manbalardan foydalanib, mustaqil yakka holda guruhda jamoa bo'lib bilim olishni mavzu yuzasidan o'z mustaqil fikrini bildirishni talab etadi. Ilg'or pedagogik texnologiya usullari asosida tashkil etiladigan darslar muntazam o'tkazilib borilsa o'quvchida mustaqil bilim olish, olingan bilimlarni tahlil qilib erkin fikr bildirish tajribasi boshlang'ich sinflardan oq shakllanib boradi.

Dunyo ta'lim tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yangi islohatlar davrida ta'lim tajribalariga tayanib ish tutmoq yaxshi natijalarga olib keladi. Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amirika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan ruhshunoslari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Turli ta'lim ko'nikmalarini bolalar ongiga singdirish, milliy tarbiyani esa boshlang'ich ta'limda shakllantirish, yaponlarga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobilyatiga ega bo'lishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Shu bilan birgalikda bolalar milliy qahramonlarini ham yaxshi bilmog'i zarur.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyasi shakllanishida ham Alisher Navoiy bobomizning o'rni beqiyosdir. Bu asosda bolalar ruhiyati takomillashadi. Alisher Navoiyni bolalarga o'rgatishda har xil ilg'or vositalar asosida dars jarayonini olib borsak o'quvchilarning fanga oid bilimlari shakllana boradi.

Bunday interfaol darslarni tashkil etish o'quvchilardan darsda faol ishtirok etishni, manbalardan foydalanib, mustaqil yakka holda guruhda jamoa bo'lib bilim olishni mavzu yuzasidan o'z mustaqil fikrini bildirishni talab etadi. Ilg'or pedagogik texnologiya usullari



asosida tashkil etiladigan darslar muntazam o'tkazilib borilsa o'quvchida mustaqil bilim olish, olingan bilimlarni tahlil qilib erkin fikr bildirish tajribasi boshlang'ich sinflardan oq shakllanib boradi.

Hozirgi globallashuv jarayonida o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan kasbiy kompetentlik, innovatsion metodlar orqali o'quvchilar bilimni oshirish yo'llari yoritib o'tilgan.

Ona tili darslarida imloviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmunida o'ziga xos hamda o'quvchi shaxsida o'ziga mos bilimni shakllantiradi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim mazmuniga zamonaviy ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil inson etib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida innovatsion metodlardan foydalanish darslarning xilma-xil shakllarini qo'llay olish, dars jarayonining takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflar o'qituvchilari ham ta'limning dunyo miqyosidagi talablariga moslashgan holda professional kompetentlikka ega bo'lishlari zahirida pedagogik faoliyat va bolalar bilan muloqotda, ta'lim-tarbiya jarayonida muntazam ravishda yuqori natijalarga erishishlari maqsadga muvofiqdir. Kichik yoshdagi o'quvchilar bilan shug'ullanadigan o'qituvchining kasbiy kompetentligi – ijodiy intellektining ortib borishi, o'z sohasidagi innovatsiyalarni o'zlashtirishga moyilligi, o'zgaruvchan pedagogik vaziyatlarga moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Muallimning kasbiy kompetentlik darajasi to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar.**

1. Quronov M. Milliy tarbiya yo'riqnomasi. G'arb va Sharq tarbiyaviy tajribalari namunalari tahlili //J. Xalq ta'limi. 1993. -№ 8. -B. 6-10.
2. G'ulomov A. Ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish. - T.: O'qituvchi.1987.



3. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O'qish kitobi (1-sinf uchun darslik). – T.: Sharq, 2009. – 127 b.
4. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari. -T.: Sharq, 2013.- 126 b.
5. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
6. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1990. -184 bet.
7. G'oziev E., Ikromov J. Mustaqil fikrlashning komillikka ta'siri //J. Xalq ta'limi. -2001. - № 4. -B. 31-38.
8. G'oziev E. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. - T.: O'qituvchi, 2003. - 336 b.
9. Hayot uchun saboqlar. BMT Bolalar jamg'armasi. O'zbekiston, 2003. - 154 bet.
10. Husanboyeva Q. Tahlil - adabiyotni anglash yo'li. Toshkent. "Muharrir" nashriyoti. 2013.-432 bet.
11. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009.-368 bet.
12. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.f.dok.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.-2006. 262 b.
13. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: "Noshir", 2009.
14. Husanboyeva Q., Shodiyev F., Hazratqulov M. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. –Samarqand: SamDU nashri, 2019.
15. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kasbiy tayyorgarligini oshirish muammolari. Ilmiy maqolalar to'plami.
16. SamDU "Ilmiy axborotnoma" jurnali 2020-yil, 6-son (124) gumanitar fanlar seriyasi Filologiya, Pedagogika, Psixologiya.
17. Pedagogika va psixologiyada innovatsialar jurnali 2019, 7-son.
18. the CEPS website <http://www.ceps.eu>)© CEPS, 2009.



## Internet saytlari:

[Google.uz.](http://Google.uz)

[ZiyoNuri.uz](http://ZiyoNuri.uz)

[www.scopus.com](http://www.scopus.com)

[www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

